

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XORSHUNOSLIK

(Ma`ruzalar matni)

Musiqiy ta`lim kafedrası

Tuzuvchi: katta o`qituvchi D. Xamdamova

NAMANGAN-2005

ANNOTATSIYA

«Xorshunoslik»- fani bo'yicha tayyorlangan ma'ruzalar matni Namangan Davlat Universiteti musiqa yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Bo'lajak bakalavrlarni tayyorlashdagi asosiy ixtisoslashtiruvchi fanlardan biri hisoblanadi. Unda bo'lg'usi musiqaviy madaniyat o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimumi belgilab berilgan.

Ma'ruzalar matni ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar, boy ma'naviy, madaniy va musiqiy merosimizga yangicha yondoshuvlarni hisobga olib tuzildi.

Tuzuvchi: katta o'qituvchi D. Xamdamova

Taqrizchilar: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
artist A. Asqarov.

O'qituvchi: N. Muxammadieva

Muxarrir: dots S. Norqo'ziev

Xorshunoslik fanidan ma`ruzalar matni Namangan Davlat universiteti O`quv Metodik Kengashining ____ yil «____» __ sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

1- Ma`ruza (2 soat)

Kirish. CHet ellarda musiqa madaniyati

Reja:

1. CHet ellarda xor ijrochiligining rivojlanish tarixi.
2. Xor san`atining tarbiyaviy ahamiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro`ziev SH «Xorshunoslik» T. 1990.
2. CHesnokov P. G. «Xor i ego upravlenie im». T. 1989.

Kirish

Jamiyatimizning madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma`naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog`liqdir. O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov ta`kidlaganidek, bu negizlar, milliy qadriyatlarga sodiqlik, ma`naviy merosni mustahkamlash va rivojlanish, insonning o`z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, vatanparvarlikdan iboratdir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatalar mushtarakligiga, mamlakatimiz barcha fuqarolarini ma`naviy madaniyatini shakllantirishga erishishiga jalb etadi. Tafakkurni boyitmasdan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabxalardagi vazifani bajarish, milliy an`ana, istiqlol mafkurasini to`la yaratish mumkin emas.

O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida» gi Qonunida qayd qilinganidek ta`limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir.

Urug`chilik jamiyatining emirilishi va sinfiy jamiyatga o`tish Baqtriya, So`g`diyona va Xorazm davlatlarining paydo bo`lishi axmoniylarning harbiy-ma`muriy jihatdan birlashuvlari Aleksandr Makedonskiy davlati, Grek-baqtriya podsholigining vujudga kelishi

eramizdan oldingi IV asrdan to eramizning VII asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy davrini o'z ichiga oladi.

Bu davr epik xarakterli mifologik qaxramonlik ustun bo'lgan qadimgi og'zaki musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashxurdir. Qaxramonlik afsonalari epik qo'shiqlar O'rta Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo'yoqdor tasvirlari bilan to'la o'z xalqining ozodligi yo'lida jonini qurbon qilgan cho'pon- SHiroqning mislsiz jasorati, Vatanga bo'lgan munosabati to'g'risida hikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizgacha etib kelgan.

Uyg'onish davrida xususan XV-XVI asrlarda Dj. Palestrina, O. Lasso, K. Janeken, J. Depre kabi polifonistik kompozitorlar yashab ijod qilgan davrlarda xor san'ati a-kapella ijrochilik uslubi ravnaq topdi.

Keyinchlik Bax, Gendel', Betxoven, Glyuk, Gaydn, Motsart, Verdi, Bize, SHubert, SHuman, Mendel'son o'z ijodlari bilan xor san'atini yuqori pog'onalarga ko'tardilar.

Xor san'atining ahamiyati va roli

Musiqqa janrlari ichida eng xalqqa tushunarli va yaqin bo'lgan tur bu xor san'atidir. Xorda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib, yaxlit obraz yaratadi. Xor xalqlar milliy musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'tmishda bizning respublikamiz xor ijrochiligiga ega bo'lmagan, xozirda esa shahar va qishloqlarda akademik va xalq (havaskorlik va professional) xor jamoalari ko'plab mavjud.

Professional va havaskorlik xorlari badiiy va texnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, professional xor havaskorlik xoriga saviyasini oshirishga yordam bersa, o'z navbatida havaskorlik va professional jamoasiga xushovoz, iqtidorli yoshlarni etishtirib beradi. San'at bayramlarida professional va havaskorlik xorlar birga ishtirok etadilar. Respublikamizda madaniyat va san'at oliy o'quv yurti, O'DK, Pedagogika universiteti qoshidagi musiqa fakul'teti, pedagogika va musiqa kollejlari mavjud.

Xor san`atining rivojlanishi

Qadim zamonlardan buyon xalqlar o`z orzu-umidlari, quvonchlari va tashvishlari, his-tuyg`ularini pantamimo orqali ifodalab kelganlar.

Bizga tarixdan ma`lumki G`arb davlatlarida xalq qo`shiqlari bilan bir qatorda cherkovda aytiladigan professional xor ijrochiligi paydo bo`ldi. Qadimiy cherkov qo`shiqlari unison (yoki oktava) xolatda ijro etilgan, ular grigorian xoral deyilgan.

X asrlarda ikki ovozli qo`shiqlar paydo bo`lgan. Uyg`onish davrida ko`p ovozli xor ijrochiligi rivojlandi. XV-XVI asrlarda ijod qilgan bastakorlar: O. Lasso

K. Janiken, J. Depre. Professional xor qo`shiqchiligi vaqt o`tishi bilan cherkovdan tashqari podshox, knyaz', pomeshchiklar saroylarida ham keng tarqaldi. O`zlarining ijodi orqali xor san`atining yuqori pog`onalarga ko`targan bastakorlar: Bax, Gendel', Betxoven, Glyuk, Gaydn, Motsart, Verdi, Bize, SHubert, Mendel'son, SHuman rus bastakorlaridan: Glinka, Rimskiy-Korsokov, Musorgskiy, CHaykovskiy, Borodin, Kyui, o`zbek bastakorlaridan M. Burxonov, S. YUdakov, M. Ashrafiy,

B. Umidjonov, S. Boboev, SH. YOrmatov, A. Mansurov, N. Norxo`jaev, D. Omonullaeva.

Tekshirish uchun savollar:

1. XV-XVI asrlar Evropa mamlakatlarida xor ijrochiligi qanday paydo bo`lgan?
2. CHet el bastakorlaridan kimlarni bilasiz?
3. Xor san`atini ahamiyati nimalardan iborat?
4. Xor madaniyati qachon rivojlangan?

Tayanch tushunchalar:

1. CHet el xorshunoslik asoschilari.

2. CHet el xor madaniyati rivojlanishi.
3. CHerkov xorlari.

2-Maruza (2 soat)

Mavzu: Rossiyada xor madaniyatining rivojlanishi

Reja:

1. Rossiyada xor madaniyatining rivojlanishi.
2. Xor san`atining rivojlanishida xor san`atining roli.
3. Xor san`atining rivojlanishida bastakorlarning hissasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro`ziev SH «Xorshunoslik» T. 1990.
2. CHesnokov P. G. «Xor i ego upravlenie im». T. 1989.

Rus madaniyati bir necha yo`nalishda rivojlanib kelgan: shahar va kristian qo`shiqchiligi, ma`rifatli qo`shiq sevuvchilar xorlari, maktab, professional cherkov va nodiniy xorlar.

XV asrda tashkil qilingan podsholik xonanda d'yaklar xori (keyinchalik Peterburg Saroy xonandalar kapellasi) va XVI asrda yuzaga kelgan patriarx xonanda (keyinchalik Moskva sinodal xori) birinchi rus professional xorlari bo`lgan. Ular cherkov marosimlarida va tantanali bayramlarda qatnashgan. SHu dyaklar ichida xor bastakorlari etishib chiqdi. Jumladan Titov, Kalenda, Demtskiy, SHaydurov, Mezenin va boshqalar.

XVII-XVIII asrlarda knyazlar, dvoryanlar o`z qaramog`ida xor va orkestr tashkil qilganlar. Ularni mediantlar xori deyishgan. (musiq va xor san`atini sevuvchilar).

Rossiyada opera-xor san`ati o`sadi. Glinka, Rimskiy-Korsakov, Musorgskiy, Borodin, CHaykovskiy va boshqa bastakorlar ijodi opera xor janrini boyitdi. XIX asrda graf SHeremetov xor kapellasi (150 yil faoliyat ko`rsatgan). XIX asrning II yarmida Ballekerovning tekin musiq maktabi, Mel`nikovning tekin xor sinfi ochilishida va nodiniy xor ijrochiligi faoliyati kuchaya bordi. Professional xalq xorlari tashkil topa boshladi, ular yoddan o`rganib ijro etishar edi. YAroslevel`

gubernasidagi Molchanov xori, Arxangel'sk xori, Gorodtsov xori, Pyatnitskiy xori, rus xalq xori.

Birinchi bor jo'rsiz xor asarlari XIX asrning 30-40 yillarida dunyoga kelgan: Alyab'ev xorlari, Dargomo'jskiy «Peterburg serenadalari xor tsikli».

Original xor asarlari yaratgan, xalq qo'shiqlarini jo'rsiz xorga qayta ishlagan bastakorlar: Rimskiy-Korsokov, Musorgskiy, Glinka, Lyadov, Arenskiy, Kyui, Napravnik, Ipolit-Ivanov, Taneev, Grechanino, Kastal'skiylardir.

Birinchi rus xalq qo'shiqlarini qayta ishlagan bastakor (bu Fomin).

XX asrda Peterburg xonandalar kapellasi, Moskva, Sinodal xori, opera teatrlari xorlari simfonik kontsertlarda qatnashib, kontata, oratoriyalar ijro qilar va jo'rsiz asarlar bilan kontsertlar berar edilar. Rus xor madaniyati bir ovovzli formalardan boshlab turli xildagi xor janrlari, ijro yo'nalishlariga keldi.

1917 yildan xor madaniyati yangi yo'nalish oldi. CHerkov davlatdan ajratildi. Oldingi Pyatnitskiy, Arxangel'skiy kabi xorlar asosida yangi xorlar, shahar va kolxozlarda havaskorlik xor, ashula va raqs ansambllari tuzila boshlandi. Vasil'ev-Buglay, Lebedev va boshqalar tomonidan patriotik xarakterdagi qo'shiqlar yaratildi. Bu asarlar unison yoki ikki ovozli havaskorlik xorlariga mo'ljallangan edi.

1936 yilda Moskvada o'tgan xor olimpiadasida ko'pgina professional va havaskorlar xorlari qatnashgan. Qardosh Respublikalar ham o'z madaniyatini rivojlantirib opera, kantata, oratoriya, a kapella janrlarini rivojlantirib bordi. Ulug' Vatan urushi yillarida professional va havaskorlik jamoalari jangchilarga madaniy xizmat qilishar edi. Urushdan keyingi xor madaniyati yana ham rivoj topdi. Tinchlik uchun kurash xalqlar do'stligi, mehnat temalari ijodiy jamolari faoliyatining asosiy mazmuni edi. Musiqa rivojlanishida opera-xor ijodiyoti alohida o'rin tutadi. Rus bastakorlaridan Djerjenskiy, SHostakovich, Prokof'ev, Koval, Kabalevskiy milliy Respublikalar bastakorlaridan Xojibekov, Spendiarov, Dankeevich, ernesaks, YAchishko kabi bastakorlar faoliyat ko'rsatdilar.

Kozlovskiyning «Ulug`bek», Vasil`enko va M. Ashrafiy «Maxmud Tarobiy», «Bo`ron», S. YUdakovning «Maysaraning ishi» va boshqa asarlarini shu davrda yaratdilar.

Bugungi kunda bolalar xorlarining soni va ijro sifati oshmoqda. Zamonaviy garmonik yangrashlarda a kapella janriga mansub asarlar yaratish va shu uslubda kuylash keng tarqaldi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Rossiyada xor san`ati qachondan boshlandi?
2. Xor san`ati rivojlanishida eng ko`p ijod qilgan bastakorlardan kimlarni bilasiz?
3. Rossiyada xor san`atining rivoji qaysi yillarga to`g`ri keladi?

Tayanch iboralar:

1. Rossiyada xor madaniyati rivojida ijod qilgan bastakorlar.
2. Professional va havaskorlik xorlar.
3. 1917 yilgi xor rivoji.
4. 1934 yilgi xor san`ati.

3-Ma`ruza (2 soat)

Mavzu: O`zbekistonda xor madaniyati

Reja:

1. O`zbekistonda xor madaniyati.
2. Havaskorlik xor madaniyatining rivojlanishi.
3. O`zbekistonda xor madaniyatining boshlanishi va rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH «Xorshunoslik» T. 1990.
2. CHesnokov P. G. «Xor i ego upravlenie im». T. 1989.
3. Gudkova E.A. , Vasil`eva A.B «Ashula darsligi metodikasi» T. 1773.
4. O`zbek musiqa tarixi I, II tomlar. T. 1973.

5. Salomonova T.E. O`zbek musiqasi tarixi. T. 1981.

O`tmishda So`g`t davlatida professional xor mavjud bo`lgan, keyinchalik Arab iste`losidan keyin bu san`at rivojlanmagan. O`zbek musiqasi asosi monodik (bir ovozli) bo`lganligi sababli ko`p asrlar davomida ko`p ovozli xor ijrochiligi amalda qo`llanilmagan va professional yakka ijrochilik formasi saqlanib qolgan.

Ko`p ovozli xor dastdlab musiqali drama va komediyalarda xalq musiqasini xorga moslab qayta ishlangan holda qo`llanildi. S. Vasil`enko va M. Ashrafiy «Bo`ron»,

R. Glier va T. Sodiqovlarning «Layli va Majnun» kabi birinchi operalari ko`p ovozli o`zbek xor ijrochiligi rivojida muhim rol o`ynadi.

Qadim zamondan beri jamoa bo`lib qo`shiq aytish hamma xalqlarning mehnat faoliyatini, orzu-umidlarini ifodalab berish uchun ishlatilgan. Qo`shiqlar avloddan-avlodga og`zaki usulda qoldirilgan. O`zbekistonda erkaklar, ayollar va bolalarning birga qo`shiq aytish an`analari bo`lgan. Masalan turli marosim va sayillarda, ramozon oyida bolalarning qo`shiq aytishi yoki kattalarning zikr tushishi, marsiya qo`shiqlari aytishi. Bolalarning jamoa bo`lib ijro etadigan qo`shiqlarini: «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «Laylak keldi».

Navro`z bayramlarda yigit va qizlarning qo`shiq aytishi, to`ylarda aytiladigan yor-yor, yallalar xor bo`lib ijro etilgan. SHashmaqomning vokal qismidagi taronalar ham jamoa bo`lib aytilgan. Katta ashulalar ham 3-4 kishi bo`lib ijro qilingan (bu xam xor ijrosi). YUqridagi aytib o`tilgan asarlar bir ovozda ijro etilgan. Folklor qo`shiqlari (yor-yor, yalla, hashar, 5 qarsak, lapar, katta ashula) va maqomdagi (tarona, ufor, naqsh) qismlari jamoa bo`lib aytilgan.

Havaskorlik xor san`atining rivojlanishi

Respublikamizda musiqa va xor 20 yillardan boshlab rivojlana bordi. To`garaklar tuzila boshlandi.

1930 yillarda etuk bastakorlar YU. Rajabiy, Imomjon Ikromovlar 1-2 ovozli xor qo`shiqlari yaratdilar. 1934 yilda 1-musiqa badiiy

olimpiadasi o'tkazildi. Bu olimpiadada 1000 kishilik xor qatnashdi. 1937 yilda Moskva O'zbekiston dekadasida xor jamoalari qatnashdi. Urush davrida havaskorlik xorlar jangchilar uchun kontsertlar uyushtirar edilar. Urushdan keyin respublika olimpiadasida 20 000 kishi qatnashdi (1143jamoalar).

1948 yil-III olimpiada 25 000 kishi qatnashdi, bir va ko'p ovozlilik rivojlana bordi. 50 yillarda Konservatoriya, musiqa bilim yurti o'qituvchilari havaskorlik xorlarga amaliy yordam bera boshladilar. 60-70 yillarda havaskorlik jamoalarini soni va sifati oshdi. Bolalar xor ijrochiligining rivojlanishda konservatoriya dotsentlari Kenzer, Valenkov, Vasil'eva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist SH. YOrmatovlarning xizmatlari katta «Boychechak», «Bulbulcha» guruxlari juda ko'plab o'zbek xor asalarini ijro etib kelmoqdalar. Respublikamizda 100lab ashula va raqs ansambllari mavjud, ularni qoshida xor-vokal guruxi tuzilgan. Masalan: «Anor», «Gulrux», «CHust taronalari», «SHirin», «Roxat», «SHalola» xor tarkibida 15-20 kishi mavjud. Ular lapar, yalla. YOr-yor qo'shiqlarini ikki-uch ovozda ijro etishadi. O'zbek ko'p ovozli xor asarlariga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib kelayotgan:

T. Sodiqov, M. Burxonov, SH. Ramazonov, M. Ashrafiy, S. YUdakov, M. Leviev, S. Boboev, F. Nazarov, B. Umidjonov kabi bastakor va kompozitorlardir.

Professional xor san'atining rivojlanishi

O'zbekistonda professional xor san'atining eng kech rivojlana boshlagan san'at turlaridan biridir. Buning uchun zarur shart-sharoitlar yo'q edi. Xor san'atini amalda rivojlantirish uchun musiqa o'quv yurtlari ochish, malakali xormeysterlar, bastakorlar tayyorlash kerak edi. SHunday muhim masalalarni bajarilishida bir qator rus musiqa san'ati arboblari V. Uspenskiy, E. Romanovskaya, N. Mironov, R. Glier, S. Vasil'enko, A. Kozlovskiy va bir qator o'zbek professional musiqachilarining hissasi katta. Professional xor ijodi va ijrochiligining oddiy formalari musiqali dramalarda uchraydi. Ikki epizodik uch ovozli

fakturalar uchrab turadi, chunki bastakorlar sharoit etarli emasligini yaxshi bilishar va uch-to'rt ovozni ishlatmasdilar. 30 yillarning ikkinchi yarmida bu ish takomillasha bordi.

1936 yil O'zbekiston radiosi qoshida o'zbek xori tuzildi va yangi tuzilgan O'zbekiston Davlvt Filarmoniyasi qoshida xor kapellasi tashkil qilindi

1937 yilda xor jamoasi bastakorlar M. Ashrafiy va T. Sodiqovlarning to'rt ovozli qo'shiqlarlarini tayyorlab bordi. 1934-37 yillarda Moskva konservatoriyasida ko'pgina bastakorlar: Zokirov, Abduraxmonov, Davidov, Ashrafiy, Nasimov, Xoshimov, Qori YOqubov, Burxonov, YUdakovlar taxsil oldi.

YOsh o'zbek bastkorlari rus bastakorlari bilan ijodiy hamkorlikda o'zbek milly operasini yaratishdi.

Bu S. Vasil'enko va M. Ashrafiy «Bo`ron» operasidir. 1939-40 «Ulug` kanal», R. Glier va T. Sodiqovlarning «Layli va Majnun» operasi. Urush yillarida Kozlovskiyning «Ulug`bek», CHishkoning «Maxmud Tarobiy» operalari yozilgan.

1952 yilda O'zbekiston Davlat Filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi tashkil qilindi-raxbar Valenkov edi. M. Burxonov kapella uchun birinchi jo'rsiz xor qo'shiqlari yaratdi. Respublika a kapella janri vujudga keldi. O'zbekistonda xor san`atining o'sishi 1960 yilda tashkil qilingan. O'zbekiston radio va televideniesi davlat komiteti Milliy xorining hissasi katta. Bu kapellaning rahbari- B. Umidjonov bo'lgan.

O'zbek bastakorlari hamma janrlarda o'zlarini hissalarini qo'shganlar- kantata, oratoriya, oda, ballada, a kapella. Masalan: S. YUdakovning «G`alaba», «Meninig Vatanim», «Muborak», «To`yona» kantatalari, «Mirzacho`l» syuitasi, M. Ashrafiyning «O`zbekiton», «Baxt» kantatalari, I. Xamroevning «O`zbek xotin-qizlariga» kantatasi, Vil'dnov, Veralas, Burxonov, D. Zokirov, M. Nasimov, B. Umidjonovlarning «Asrim sadosi» kantatasi.

Kamer xorlari

Kamer- nemischa uy, xona degani. Kamer xorda 30 tacha musiqa ma'lumotiga ega talaba va ishchi yoshlar ishtrok etadi. Kamer xor guruxi keng tarqalgan, sabab katta gurux akademik xorni tuzish uchun kerakli ovozlar, ko'p xonandalar, maxsus joy kerakligi kabi muammolarning yo'qligidir. Ba'zi kamer xorlar professional jamoalarga aylangan. Kamer xorining ikki shakli mavjud:

Professional

Havaskorlar

Bu xorlarda ovozlarning joylanishi ham boshqacha bo'ladi. Masalan: SHou boshchiligidagi amerika xori Kvartet uslubida tuzilgan. (Partiyalar emas, S. A.T.B) Bu xorlarda klassik va zamonaviy xor asarlaridan iborat repertuar ishlatiladi. Ba'zi bastakorlar kamer xorlar bilan doimiy ijodiy bog'lanishda bo'lishadi. Masalan: Sviridov «Pushkin gulchambari» va boshqa asarlarini Moskva kamer xoriga yozgan.

Bizda SH. YOrmatov – «Bulbulcha» bolalar xori uchun, B. Umidjonov tele –radio komiteti xori uchun yozgan.

Opera xorlari

Opera xor ijrochiligining o'ziga xos xususiyati bor. Xor sadolari ostida eshitilmay qolmasligi uchun nyuanslar katta ahamiyatga ega. (faza tovush tusi) operada xor dekarativ fan vazifasini bajarishdan tashqari operaning dramaturgiyasida faol qatnashdi va uning ijrosi sahna harakati bilan bog'liqdir. Sahnadagi mizanstsenslar xonandalarga raxbarni ko'rishga xalaqit berishadi. SHuning uchun xormeysterlar sahna ortidan ko'rsatib turadilar. Opera xorlari kontsertlarda chiqishmaydi. A. Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatr xori (SHodmonov) va Samarqand opera balet teatr xori teatrlashgan. Xorning yana bir turi-o'yin (xorovod). Instsenirovka qilib qo'shiq aytish. Ma'lum temalar syujet qilib olinadi. «Paxta bayrami», «Xalqlar do'stligi».

Ashula va raqs ansambllari

Bu ansambl qo`shiq va raqs san`atining organik birikmasidir. U uch guruxni o`z ichiga oladi:

- xonandalar;
- sozandalar;
- raqqosalar;

Birinchi ansambl Aleksandrov nomidagi armiya ashula va aqs ansambli (1928).

O`zbekistondagi yoshlar ashula va raqs ansambllari:

«SHodlik», «Lazgi», «Go`zal», «O`yg`ur ansambli», «Dutorchi qizlar ansambli», Qoraqalpog`iston «Qirq qiz» ansambli. Professional havakorlik ansambllari: «Parvoz», «Bayot», Anor, «SHalola», «Lola», «Gulrux», «CHust taronalari».

Xalq xorlari

Xalq bayramlarida, mehnat ishlari jarayonida xor bo`lib qo`shiq aytilgan. Bu shaharlarda, ishchilar orasida, yoshlar sayillarida keng tarqalgan. Bir necha ashulachilarni artel' deyishgan. Bir oila a`zolaridan iborat bo`lsa- oila ansambllari deb yuritilgan.

Pyatnitskiy xalq xori (1911).

Don kazaklari ansambli.

Ural xalq xori va boshqalar

Bizda O`zbekiston radio TV si qoshidagi milliy xor (B. Umidjonov ). Xalq xori- xalq qo`shiqlarining xususiyatlarini saqlagan xolda ijro qiladi. Raxbar faqat mahalliy qo`shiqchilik a`nalarini bilish bilan chegaralanmay, xalq qo`shiqlarini yaxshi biladigan kishilarni taklif qilishi shart. Xalq xorlari akademik xorlardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.

- vokal struktura o`ziga xosligi
- tabiiy ovozda kuylash
- polifoniyada (ko`p ovozli) kuylash
- imprevizatsiya qilish (badixa)
- repertuar- xalq qo`shiqlari va xalq lad tonligi asosidagi asarlar
- dirijyorsiz ijro etish to`rt ovozning doimiy bo`lmasligi S. A. T. B

- xorovod harakat vositasini ishlatish

Xalq xorlari uch guruhdan iborat: xor, o'yinchi va sozandalar. Dirijyorsiz ijro etishadi. Xonandalar soni ovozlar (ayol va erkak) sonini ahamiyati yo`q. Bir joyda ayollar ko`proq yoki boshqa joyda erkaklar ko`proq bo`ladi. Ayollar- pastki, erkaklar- yuqori kuylashadi.

I tur xorlar – S va B yo`q, ovozlar tor joylashgan diapazonda kuylashadi.

II keng diapazon- hamma obrazlar bor. Ular oq tovush (ochiqlik) bilan aytishadi. Xalq xorlari professional va havaskorlik xorlarga bo`linadi.

Professional xalq xorlari

Professional xalq xorlarining soni 40-50 kishidan iborat. Ayollar ko`pchilikni tashkil qiladi, ular partitura bo`yicha improvizatsiyasiz kuylashadi. Sal «niqobdor» qilib joylashtirish to`g`risida qoida yo`q. Diapazoni turli bo`ladi. Rossiyada 12 professional xalq xorlari mavjud, ulardan 3 tasi «akademik xor jamoasi» nomiga ega bo`lishgan.

Havaskorlik xalq xorlari

Havaskorlik xalq xorlari qishloq, rayon, shahardagi klub va madaniyat saroylarida va bolalar va o`smirlar uylarida faol ishlab turibdi.

Asar raxbarining ovozidan o`rganiladi. Bu xorda 20-30 xonanda bo`ladi. Respublikamizda CHirchiq shahar «Mashinasozlar» zavodi xalq xori bor. Xalq xori ijrochiligida yanna ikki shakl, ya`ni bolalar xori va musiqa o`quv yurtlarining o`quv xorlari bor. Ular keng kontsert ijrochilik faoliyati va xalq qo`shiqlarini to`plash kabi vazifalarni olib boradilar.

Jo`rsiz xorlar

A kapella janri ham tez rivojlandi. M. Burxonov «YOrlarim», «Go`zal qizga», «Sayra», «Zarra gul», «Bibi gul», «Sari ko`hi baland». A. Muhammedovning «YAshna hur Vatan», S. Boboev «CHaman ichra», «YAli-yali», «Endi sendek». I. Akbarov «Qoyilmay». SHu asar pedagogik kollej xorlari repertuaridan o`rin olgan edi.

O`zbekistonda xor madaniyati 20 yillardan rivojlanib bordi. 30 yillarda xor madaniyati eng yuqoriga ko`tarilgan davr xisoblanadi.

60 yillarda B. Umidjonov ko`p xalqlar qo`shiqlarini qayta ishlagan. «Diliman», «Gar namidoni», «YAppuray», «Qorasoch», «Og`a doram», «Ilila yor», «Galbari», «Qomuzchu», «CHamanda gul», «Xurshidi jahon galdi» va original syuita «Dilbarume».

70-yillar S. Boboev «Tanovor», «Bog` sayliga» kabi klassik ashulalar asosida xorlar yaratdi. M.Burxonov «Ayriliq», «Damko`l», «CHashmi siyoh». Klassik merosni xor uchun qayta ishlashda S. Boboev va B. Umidjonovlar katta ish qilishgan. «Segoh, CHorgox, O`zgancha»- kabi asarlar etuk asarlar qatoridan o`rin topgan.

80 yillarda S. YUdakovning «Tusna», «Muborakbod»- kantatalari, M. Nasimovning «Dunyoga tinchlik» kontatasi, S. Boboevning «Abu Ali ibn Sino» poemasi, «Alloma (Al-Xorazmiy)» kontatalari yaratilgan.

1950 yillarda tashkil topa boshlagan professional xor 40 yildan ortiq davr ichida tobora rivojlanib bormoqda. O`zbekistonda o`tmishda xor-dirijyorligi bo`lmagan. Xor-dirijyorligi ta`limini yo`lga qo`yish uchun konservatoriya 11 yillik musiqa matablarini, Uspenskiy nomli madaniy-oqartuv texnikumi va boshg`a viloyatlarda xozirda musiqa va pedagogika kollejlari ish olib bormoqda.

1950 yillarda A. Gudkova, A. Valenkov, B. Vasil`eva, A.Melik-Karamyanlar konservatoriyani namunali tamomlab ishga taklif etildi. Konservatoriyani xor-dirijyorligi bo`limini o`zbek milliy kadrlardan Abduqahhor Sultonov tamomlagan edi.

1960 yillarda B. Umidjonov, Sulaymon SHodmonov, M. Azimov, N. Qozievlar konservatoriyani muvaffaqiyatli tamomlaganlar. Marxum Botir Umidjonov chorak asr mobaynida O`zbekiston radio va televideniesi milliy xor jamosiga raxbarlik qilib keldi. Uning o`zbek milliy xor madaniyatini rivojlantirishda hissasi katta.

S. SHodmonov A. Navoiy nomidagi milliy adademik katta opera va balet teatrida 20 yilga yaqin xormesterlik qilib O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist unvoniga sazovor bo`lgan. M. Azimov va N. Qozievlar O`DK xor-dirijyorligi kafedasi yoshlarga saboq berib kelmoqdalar.

1970 yillarda Xakimova, Baxrullo Lutfullaev, Axad Xamidov, Evgeniy Jivaev, SHamsuddin Ro`ziev, SHarafieva, Jumaeva kabi konservatoriyani tamomladilar. O`zbekistonda qisqa davr ichida xor madaniyati barpo etildi.

Xozirda Respublikamizda O`DK, Madaniyat oliygoxi, pedagogika universitetlari musiqa fakul'tetlari, musiqa, pedagogika kollejalari 4-11 yillik internat, bolalar san`at aktaqlarida xor dirijyorligi ta`limi berib kelinmoqda.

Jumladan viloyatimizdagi NamDU musiqa bo`limi, musiqa, pedagogika kollejlari va musiqa maktaqlarida ham xor-dirijyorligi sinfi bo`yicha bilim berib kelinmoqda.

Tekshirish uchun savollar:

1. O`zbekistonda xor san`ati qachon va kimlar tomonidan yaratilgan?
2. Radiokomitet qoshidagi birinchi xor jamoasi qachon tashkil etilgan?
3. Qadimgi So`g`t davlatida xor jamoasi mavjud bo`lganmi?

Tayanch iboralar:

1. Jo`rsiz xorlar.
2. O`zbekistonda 1940 yildan so`ng ko`p ovozli xorlarning rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Xor jamoalariga kimlar raxbarlik qilgan?
4. Lokal- o`zbek xalqining musiqa merosida 4ta mahalliy uslublar mavjud. Xorzam, Buxoro-Samarqand, Farg`ona-Toshkent, Surxandaryo-Toshkent.

4-Mavzu (2 soat)

Mavzu: Xorning badiiy yo`nalishlari

Reja:

1. 1950-1970 yillardagi xor san`atining rivojlanishi.
2. 1976-1990 yillardagi xor san`atining rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Krasnosheykov V «Voproso` xorovedenie» M. 1969.
2. Asaf'ev B.V «O xorovom iskustve» L. 1980.
3. Ro`ziev SH «Xorshunoslik» T. 1987.
4. SHarafieva N « Xorshunoslik» 1987.

Professional va havaskorlik xorlari o`zining badiiy –ijrochilik yo`nalishiga qarab farq qiladi. Ular xalq xorlari va akademik xorlarga bo`linadi. Ular bir-birlaridan ijro uslubi, repertuari, tashkil etilishi, ishi va boshqarilishi bilan farq qiladi. Professional va havaskorlik xor san`atini asosini fo`klor tashkil qilganligi sababli ular o`zaro yaqinlasha boradilar.

Akademik xorlar

Akademik yo`nalishdagi havaskorlik xorlar «umumiy tipdagi xorlar» deyiladi. Ular:

- niqobdor (yarim yopiq) tovushda kuylashadi (akademik uslub);
- vokal strukturasi (partiyalarga bo`lish);
- asar partiturasining o`rganilishi va ijro qilinishi (improvizatsiyasiz-o`zgartirilmasdan);
- rahbarning xorning boshqarishi shartligi bilan xalq xorlaridan farq qiladilar. Akademik xorlarda rahbarning o`rni katta.

Akademik ijro uslubida kuylashadi:

- xor kapellalari;
- kamer xorlar;

- vokal ansambllari;
- o`quv xonalari;

Bu yo`nalishda jo`rsiz va jo`rli ijrochilik fomalari bo`ladi.

Jo`rli- bu rol', duxovoy orkestr, ba`zi xalq cholg`u asboblari ansambli, masalan, ashula va raqs ansambllari.

O`zbekiston xor kapellasi 1951 professional xor akademik tipdagi havaskorlik xoriga Toshkent Davlat universiteti xor jamoasi kiradi.

Xor kapellasi

Kapella- lotincha so`z bo`lib, xor jamoalarini bildiradi. O`rta asrlarda katolik cherkovidagi xor joylashgan erni kapella deyishgan. O`rta davrda jo`rsiz

(a kap) ijro uslubi keng tarqalgan edi. a kapella uslubida kuylaydigan xorlarni kapella deyishadi masalan: O`zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshidagi xor kapella. CHet elda ba`zi kamer orkestri yoki vokal-instrumental ansambllari ham kapella deyiladi. Masalan, Drezden kamer kapella, Ukraina bandurchilar kapellasi.

Tekshirish uchun savollar:

1. 1950-1975 yillarda xorning rivojlanishi qay darajada edi?
2. Professional va havaskorlik xorlarining farqlari nimalardan iborat edi?

Tayanch iboralar:

1. Jo`rli xor- jo`rnavoz, orkestrlar bilan ijro etiladi.
2. Kapella- jo`rsiz ijro.

5-Mavzu (2 soat) **Mavzu: Bolalar xori**

Reja:

1. O`zbekiston milliy ashulachilik uslublari.
2. Fol'klor va og`zaki an`anadagi musiqa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gudkova E.A «Uzbekskaya xorovaya literatura». T. 1974.
2. Ro`ziev SH «Xorshunoslik». T. 1990.
3. O`zbek musiqa tarixi. T.1981. Tuzuvchi: Solomonova T. E.

Xozirgi kunda bolalar xori ijrochiligining quyidagi formalari bor:

- bolalar xor studiyalari
- bolalar xor maktablari
- bolalar xor bilim yurtlari
- musiqa maktablaridagi xorlar
- TV qoshidagi «Bulbulcha» xori
- bolalar saroylardagi (Respublika «Boychechak») xori

Xor havaskorligining ijrochilik formalari:

1. Ommaviy
2. Boshlang`ich
3. YUqori tip
4. Massiv (qo`shma-ulkan)

1. Ommaviy- xor ijrochiligining eng oddiy shaklidir. Bog`larda, stadionlarda, bayramlarda ko`chilik bo`lib qo`shiq aytish tabiiy ravishda paydo bo`ladi. Havaskorlik xorlaridagi tarbiya, vokal sistema ishlari bo`lmaydi. Ular keng tarqalgan xalq qo`shiqlarini ijro etadilar. SHunga qaramay asosiy kuy ba`zida biroz o`zgarib ketadi.

**2. Boshlang`ich** xorlarga ijro tajribasi kam, lekin doimiy faoliyat ko`rsatuvchi jamoalar kiradi. Ommaviy xordan farqi:

- tashkilotchilik asoslari
- xonandalar sostavining davomiyligi
- muntazam ishlashi
- vokal-xor ishlari olib borilishi

Bu xorlar madaniyat uylarida, tashkilotlarda tuziladi. Repertuarlarida 2,3 ovozli ashulalar bo`ladi.

3. YUqori tipdagi xorlar ovozlarni soddalash yo`li bilan tuziladi ularning repertuarida ko`p ovozli asarlar va a kapella asarlari

mavjud. Chunki xonandalar to'la diapazonli ovozlari bor, nota savodiga ega bo'ladilar. Misol- TD universitetida kamer xori (rahbar I. SHaripova).

4. Massiv xorlar –bir necha xor jamoalarini qo'shib tuzadi. Soni bir necha yuzdan, bir necha mingga etadi. Bu xorlar ayrim yirik anjumanlarni o'tkazish munosabat bilan tuziladi. Ular 2-3-4 ovozli murakkab bo'lmagan asarlarni orkestr jo'rligida ijro etadi. Xor jamoasidan stadionlarda chiqish uchun yoki tantanali kontsertlarni ochish uchun qo'llaniladi. Bunday massiv xor bir necha aralash (erkaklar, ayollar, bolalar) jamoalarining qo'shilishidan tashkil topadi.

Xor jamoasi

Xor grekcha «Xoros»- yig'ilish ma'nosini bildiradi. Qadimiy grek teatr spektakllarida qatnashuvchi ashulachilar, o'yinchilar va deklomatsiya qiluvchilar guruxi «xorvetlar» deyilgan.

Xorda yakka tembrlarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan o'ziga xos tembrlar mavjuddir. Xor deb – maxsus tashkil qilingan vokal- xor texnikasiga, Badiiy-ifoda vositalariga ega bo'lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga etkazib bera oladigan jamoaga aytiladi.

Ovozlari xalqasi

Ovoz apparatining tuzilishi.

Ovvoz apparat- bu murakkab «Musiqasi asbobi». Ovoz apparati:

1. Tomoq- (gorlo)
2. Xiqqildoq - (gorlo)
3. Halqum- (glotka)
4. Nafas ravog'i- (svod)
5. Ovoz pardalari- (bog'lamlari)
6. Rezanatorlar
7. Har xil mushaklardan iborat muskul

1. Xiqqildoq- ovoz paydo qilish vazifasini bajaradi. U uziksimon va 2 shoxsimon tog'aylardan iborat. Ular muskullar yordamida oldinga va orqaga harakat qiladi. Tomoqning halqum devorlari tomonidan nafas yo'li boshlanadi va ovoz tarqaladi, ravog'ining har ikkala chetidan nozik to'qimalardan iborat ovoz pardalari bor. Odam ovozi juft va toq xiqildoq tog'aylari pardalarining muskullari yordamida bir-biri bilan birikishdan hosil bo'ladi. Tovushning baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligi xiqqildoq bo'shlig'ining katta-kichikligiga, pardalarning tarangligiga va boshqa narsalarga bog'liq. Ovoz pardalari yuqori va pastda joylashgan bo'lib, yuqorisi- soxta, pastdagisi chin ovoz pardasi deyiladi. Ayollarning xiqqildog'i yuqoriroqda, bolalarniki ham undan yuqoriroqda joylashgan bo'ladi. Keksalarning xiqqildog'i pastroqda, shuning uchun ovozlari past bo'ladi. Kishi nafas olganda ovoz chiqmaydi, chunki ovoz avog'i erkin holda bo'lib, ovoz pardalari taranglashmagan. Ovoz ravog'i toraya boshlashi bilan tovush chiqa boshlaydi.

Xonanda ovozi

Ovoz yumshoq, aniq va jarangdor bo'lsa- yaxshi xisoblanadi. Agar ovoz qaltiroq harakatga ega bo'lsa, xorga to'g'ri kelmaydi. Ovoz tembri tovush sifatidir. Xor ovozlari uch guruxga bo'linadi.

1. Bolalar ovozi (D. A).
2. Ayollar ovozi (S. M. A. K. A).
3. Erkaklar ovozi (T va B).

Kattalar ovozi ikki xil bo'ladi. Lirik va dramatik xordagi ovozlari:

Lirik- Ovoz mayin, yumshoq bo'ladi.

Dramatik – jarangli, kuchli bo'ladi. Qo'shma har-xil ovozlari ham bo'ladi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Bolalar xorining qanday turlari mavjud?
2. Bolalar xorining qanday formalarini bilasiz?

Tayanch iboralar:

1. Bolalar ovozi- D. A.
2. Ayollar ovozi S. A. K.
3. Erkaklar ovozi- T. B. Bariton.

6-Mavzu (2 soat)

Mavzu: Bolalar ovozi

Reja:

1. Xor ijrochiligi janri.
2. Xor kuylovchilar tashkiloti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro`ziev SH «Xorshunoslik». T. 1990.
2. Pigrov K «Rukovodstvo s xorom» M. 1964.
3. SHarafieva N «Xorshunoslik» 1987.

Bolalar ovozida tovush o`zining engilligi, tiniqligi, xarakterli jarangdorligi bilan ajralib turadi. Bolalar ovozi diskant<sup>1</sup> (yoki soprano)va al'tga bo`linadi.

Diskant- bolalarning yuqori oavoz bo`lib do¹ fa-sol'².

Al't-pastda pastki ovoz bo`lib sol'-lya_{kich}, re-mi².

Al't ovozining yuqori pardalari qo`llanilsa, bolalar zo`riqib kuylaydi, ovoz kuchsiz bo`lib chiqadi. YUqori tessiturada yozilgan asarlar bolalar xoriga tavsiya etilmaydi.

Al't ovozi xorda ikkinchi tovushni ijro etadi, u ba`zida asosiy kuyni olib boradi. Bolalar ovozi mutatsiyaga bog`liqdir.

Mutatsiya- lotincha so`z bo`lib (mutatio), o`zgarish (rasta bo`lish) degani. 12-14 yoshida ba`zida undan kechroq o`tadi. Bunda yurak kengayadi, muskullar mustaxkamlashib boradi. Jinsiy tiklanish davri o`g`il bolalarda 1-2 yil keyin boshlanadi. SHu davr-mutatsiya deb aytiladi. 1-2 sinfda qiz va o`g`il bolalarni ovozlari bir xil bo`ladi,

mutatsiya davrida qizlarda katta o'zgarish bo'lmaydi, ancha engil o'tadi. Mutatsiya ikki 2 davrga bo'linadi:

1. Mutatsiya davrini alomatlarini paydo bo'lishi (ovoz pardalarining qizarishi).

2. Ovozning pasayishi va pastki (ko'krak registri) tovushlarning paydo bo'lishi.

O'g'il bolalarda erkakcha ovoz paydo bo'ladi. Qizlarda esa diapazon kengayadi. Ayrim pedagoglar mutatsiya davrida ashula aytmaslik kerak deyishsa, ayrimlari aytish kerak, lekin individual yo'l tutish shart degan fikrlarni bildiradilar. Boshqa ovozga o'tishish (transpozitsiya) masalan: D-dan. A-ga).

V-VII sinf xoriga qulay tessitura va diapazon katta bo'lmagan asarlardan repertuar tuzish kerak.

Tekshirish uchun savollar:

1. Bolalar ovoziga xarakteristika.
2. Bolalar xorining turlari.
3. Bolalar xor jamoalari xaqida qisqacha ma'lumot.

Tayanch iboralar:

1. Mutatsiya-ovoz o'zgarishi
2. Bolalar diapazoni.

7-Mavzu (2 soat)

Mavzu: Ayollar ovozi

Reja:

1. Ayollar ovozlarining turlari
2. Ayollar ovoziga xarakteristika
3. Ayollar xori uchun yozilgan asarlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro`ziev SH «Xorshunoslik». T. 1990.
2. Pigrov K «Rukovodstvo s xorom» M. 1964.
3. SHarafieva N «Xorshunoslik» T. 1987

Ayollar xori yuqori ovozi asosan ikki turga bo`linadi.

1. Koloratura
2. Lirik koloratura
3. Lirik
4. Dramatik

1. **Kolora**- lotincha «Colora» bezayman degani. Bulbulga o`xshash juda kuchli tembrli ovozdir. Uning diapazoni 2,5 oktavada do<sup>1</sup>-mi-fa<sup>3</sup> uch registrga ega. Pastki (ko`krak), o`rtacha (medium), yuqori (bosh) juda kam uchraydi va xorda ishlatilmaydi

2. Aralash xarakatli ovoz xorda qo`llaniladi.

3. Engil mayin ovoz, xorda asosiy kuyni ijro etadi. Do¹-Do-re³ gacha, lekin xorda yuqori notalar ishlatilmaydi.

4. Aralash xorlarga egadir.

5. **Dramatik sopranoni** diapazoni ikki oktavani tashkil etadi: Do¹-Do³ xorda kolaratura vazifasini o`taydi.

Al't ayollarning past ovozi hisoblanadi. 2 turga bo`linadi.

1. Metstso soprano
2. Kontral'to

1. Metstsosoprano- italyancha «mezzo» o`rtacha degan ma`noni bildiradi. Diapazoni sol' ^{kich}-lya, sol'-lya² registri bor: pastki, o`rta, yuqori. Xorda A 1 vazifasini bajaradi va o`rta, pastki registrlardan foydalanadi.

2. Al't. Italyancha- ayollarning eng pastki ovozi degani. Diapazoni fa ^{kich}- sol'² judva kuchli ovoz. Xorda A 2 vazifasini o`taydi. YAxlit ayollar xorida KA sadosining poydevori vazifasini bajaradi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Soprano va al't tovushlari xaqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Ayollar ovozining xususiyati qanday?

Tayanch iboralar:

1. Soprano- ayollarning eng yuqori ovozi.
2. Kolaratur- lotincha «colara» bezayman ma`nosida.

8-Ma`ruza (2 soat)

Mavzu: erkaklar ovozi

Reja:

1. Erkaklar ovozi.
2. Erkaklarning ovoziga xarakteristika.
3. Erkaklar xori xaqida ma`lumot.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro`ziev SH «Xorshunoslik» T. 1990.
2. CHesnokov. P. G «Xor i upravlenie». M. 1980.

Erkaklar ovozi ikki turga bo`linadi: T va V.

Tenor-lotincha «Teneo» ushlayman- degani. eng yuqori ovoz. O`rta asrlarda asosiy kuyni T ijro etgan va bu kuy o`zgarmagan xolda qaytarilgan asarning oxirigacha va T kalitida yozilardi. Hozir skripka kalitida yoziladi va bir oktava pastda o`qiladi. Bas kalitida ham yoziladi(agar partitura ikkitalik bo`lsa). Diapazoni ikki oktavani tashkil etadi: Do_{kich}-do². T-ovozining asosiy turllari: 1- altino. 2- lirik. 3-lirik dramatik. 4- dramatik. U ikki registrda foydalanadi: yuqori va o`rta Do¹-Mi³ . T1 partiyasida ijro etadi.

Do_{kich}- Do² bu ovozda ham ikki registr bor, ko`krak va yuqori xorda T1 partiyasini kuylaydi (Sattor YArashev). Ikki registr pastki va yuqorigi.

Bas ovozi kuchli va jarangdor bo`ladi. Do<sub>kich</sub>-Si<sup>1</sup> xor TII vazifasini bajaradi. Ko`krak va yuqori registri bor.

Bas ovozi erkaklarning past ovozi bo`lib 3 turga bo`linadi:

1. Bariton. 2. Bas. 3. Oktavachi bast.

1. **Bariton**- grekcha («barus»- og'ir, past va «Tonus»- ton) – erkaklarning o`rta ovozi. Ikki xil bo`ladi. Lirik va dramatik.

1. **Lirik bariton**- tenorga yaqin.

2. **Dramatik**- basga o`xshaydi. Ovoz diapazoni: sol'-lya bemol' ^{kat}-
lya bemol' ¹.

1. **Bas**- grekcha «basso»-past degani. erkaklarning past ovozi. Uch turga bo`linadi:

1. YUqori bas (lirik va dram).

2. O`rtacha bas.

3. Oktavali bas.

1. **Lirik bas** ikki registr bor diapazoni: mi ^{kat}- fa¹. Dramatik bas kuchli T keng, jarangdor bo`ladi. ikki registr bor: mi ^{kat}- mi¹ registrga ega.

2. **O`rta markaziy bas**-diapazoni 2 oaktava: Do^{kat}- Do-Re ¹. Xorda 1-2 bas partiyasini ijro etishadi.

3. **Oktavali bas**- (profundo-oktava, pastki bas)- kam uchraydigan erkaklarning eng past ovozi. Ular oddiy baslardan bir oktava pastda kuylaydi. Professional xorda bu ovozning bo`lishi shart. Ovoz diapazoni Sol' ^{kontroktava}- do¹. Ikki yarim registrga ega: pastki va yuqorigi. Ular xorda poydevor vazifasini bajaradilar.

Tekshirish uchun savollar:

1. Tenor va bas ovozlari xaqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Erkaklar ovozining xordagi o`rni?
3. Tenor va bas partiyalari nimasi bilan farq qiladi?

Tayanch iboralar:

1. Tenor- erkaklarning eng yuqori ovozi.
2. Bas- lirik va dramatikdan iborat.

9-Ma`ruza (2 soat).

Mavzu: Vokal-xor texnikasi elementlari

Reja:

1. Vokal xor malakalari.
2. Xorda vokal-xor ishlarining formalari.
3. Vokal-xor malakalarini shakllantirishda repertuarning roli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gudkova P. G, Vasil'eva A.B «Ashula darsligi metodikasi» , 1973.
2. Ro`ziev SH «Xorshunoslik». T. 1987.
3. Qodirov R. G`. «Boshlang`ich sinfda ko`p ovozli kuylash». T 1997.

Kuylash ko`p tarmoqlarni o`z ichiga oluvchi murakkab protstsedir. Xor kollektivining asosini undagi vokal-xor ishlari tashkil etadi. Vokal mashqlari xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zamin yaratadi. Xorda vokal ishlarining sifat darajasi dirijyorning malakasi, vokal qobiliyati va pedagogik mahoratiga bog`liq. Xorda olib boriladigan vokal ishlaridan maqsad, kuylovchilarning to`g`ri kuylash malakasini shakllantirish.

Vokal ishlariga:

- xorning muhim elementlar ustida ishlashi (hamohanglikka, yaxshi sozga, so`z talaffuziga, badiiy ifoda vositalariga erishish:);

- to`g`ri nafas olish, vokal tovushlari bilan kuylashni shakllantirish;

- kollektiv a`zolarining bir xil vokal malakalariga ega qilish kabilar kiradi. Xor ijrosini muhim elementlarini barpo qilish uchun vokal-texnikasiga asosan, nafas, tovush xosil qilish, uni cho`zish, dinamika, intonatsiya va diktsiya malakalari kiradi. Xor kollektivi yaxshi vokal

texnikaga ega bo'lmasa, u xorning ijrosida na uyg'unlik (ansambl'), na tiniq soz, na tiniq talaffuz va badiiy ifoda bo'ladi. SHundan kelib chiqib xorda vokal-xor texnikalarini doimo rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Xorda yaxshi sozga, ansamblga, dinamikaga, mustahkamlikka, diktsiya va tembr bo'yoqlariga erishishda vokal-fundament mustahkam bo'lishi kerak. Rahbar vokal-xor mashqlari ustida ish olib borib xorning jaragdor va ifodali jarangiga erishmog'i kerak.

Xorda vokal-xor ishlarining formalari

Nafas- Vokal-xor ijrochiligining asosini nafas tashkil etadi. SHuning uchun xor asarlarini to'g'ri ijro etishda to'g'ri nafas olish muhim elementlardan hisoblanadi. U ovoz shakllanishi jarayonida muhim fundament rolini o'taydi. Kuylaganda nafas olish gapirgandagidan farq qiladi. Kuylaganda nafas tez olib sekin chiqariladi. Nafas olish uch turga bo'linadi:

YUqori nafas- Nafas ko'krakni yuqori qismida olinib, kiftlar ko'tariladi. Nafasning bu turi juda zararlidir. Vokal- xor ijrochiligida bu nafas qo'llanilmaydi.

Ko'krak- qorin (o'rtacha qovug'a-biqin).

Aralash- (pastki qovurg'a- diafragma usulida olinadi). Bu usul xonandalarga (havaskorlik xorlarida) oldin tushuntiriladi, keyin ko'rsatib beriladi. Bunday nafas olishda biqin va pastki qovurg'alar kengayadi. Nafas olishda kiftlar, ko'krak qafasi ko'tarilmaslik kerak. Tajribali ashulachilarda nafas ko'krakda deyarli bo'lmaydi. Ular nafasni pastga- diafragma olib, qorinni pastki qismida harakat bo'ladi. Xorda nafas olish spitsifikalari mavjud. Xorda bu vaqtda zanjir yoki ulanma nafas (tsepnoe do'xanie) olish usuli qo'llaniladi. Zanjir usuli ayrim xor asarlarini kuylashda nafas olish mumkin bo'lmagan paytlarda qo'llaniladi. Ko'p ovozli asarlarni kuylashda xonandalar zanjirli nafasdan foydalanadilar. Bu usul zanjir yoki ulama nafas olish usuli deyiladi.

Nafas olish tugab, tovushning boshlanishi **ataka** deyiladi. Ataka ital'yancha attakate hujum qilmoq degan ma'noni bildiradi. Bu vokal-

xor va boshqa musiqa janrlarida ham qo'llaniladi. Tovushning yumshoq, mayin boshlanishi yumshoq ataka deyiladi. Tovush atakasi asar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Ataka ifodali ijro vositasi hisoblanadi. YUmshoq atakada ovozning kengligiga, mayinligiga «niqobdorli» ga tezroq erishiladi.

Qattiq ataka marsh, vahima, daxshat, qattiq iztirob chekish, fig'on, tantana, shodlik kabi ifodalarda qo'llaniladi. eng asosiy vazifa hosil bo'lgan tovushni sofligiga erishish (xususan yuqori registrda), ya'ni tovushni yuqori pozitsiyada kuylash. YUqori tovush pozitsiyasiga ega bo'lmagan xor yoki xonanda to'g'ri va aniq intonatsiyaga ega bo'la olmaydi.

Xorda so'zlarini tinglovchiga etkazib berish vositasi **diktsiya** deyiladi. Asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda diktsiya muhim rol' o'ynaydi. So'zlar shoirona fikrni to'ldirsa, musiqa uni bo'yoqlari bilan to'ldirib, ma'nosii chuqurlashiradi.

Diktsiya- lotincha diktio nutq, aniq so'z talaffuzi ma'nosini bildiradi. Diktsiya aniq so'z talaffuzi va badiiy ifoda demakdir. Ma'lumki bizda unli tovushlar orqali kuylaniladi. SHuning uchun xorda so'z talaffuzi tarbiyasiga katta e'tibor beriladi.

Diktsiyani yaxshilashda vokal-xor mashqlarida unli va undosh tovushlarni kuylash yaxshi natija beradi. Bunda biz artikulyatsiyadan foydalanamiz. Artikulyatsiya – lotincha articilatio talaffuz qilish degan ma'noni bildiradi. Unli tovushlarni o'zlashtirishda undosh tovushlar muhim rol' o'ynaydi. Dirijyor undosh tovushlarni eshitilishida doimo ish olib borishi zarur. Unli tovushlar, undosh tovushlarga qaraganda qisqa talaffuz qilinadi. Diktsiya yaxshilashda o'rta registr va diapazondan, o'rta, ovoz kuchidan foydalanish yaxshi natija beradi. Doimiy mashqlar natijasida yuqori registrda kuylash va yaxshi diktsiyaga ega bo'linadi. Vokal-xor diktsiyasi bir butun kompleks bo'lib, u tartibli ravishda xorning vokal ishlari bilan bog'lab olib boriladi.

Vokal-xor malakalarini shakllantirishda repertuarning roli

Vokal- asarlarini shakllantirishda repertuarning to'g'ri tanlanishi asosiy rol' o'ynaydi. Asarlarni dastlab xor jamoasining bilim darajasiga qarab tanlanishi juda muhim ahamiyatga ega. Musiqa savodi yo'q kuylovchilar bilan dastlab oddiy unison kuylanadigan asarlar olib ishlanadi. Vokal-xor mashqlari orqali musiqa savodini shakllantirib boriladi va oddiy asarlardan murakkablariga o'tib boriladi. Dastlab kanonlar kuylatiladi. Keyinchalik o'zbek xalq qo'shig'i «CHamanda gul» asari kanon usulida o'rgatiladi. Ayrim qismlari unison shaklida barcha xor a'zolari bilan birgalikda barcha ovozlari kuylaydi. Vokal-xor mashqlari yordamida turli xil oddiydan-murakkabgacha bo'lgan mashqlar olib ovozlarni bir tekisda intonatsiyaga qarab kuylashga erishgan yuqori pozitsiyada kuylash ham yaxshi samara beradi. Kuylovchi qaysi sharoitda kuylanmasin dirijyor har bir tovushni sof, tiniq kuylashga erishishi lozim. Asarni ishlanayotganda har bir partiyani juda ko'p ishlab sof tovushlarda dinamikasi bilan kuylatish lozim. SHundan so'ng asta-sekin ovozlarni bir-biri bilan qo'shib kuylatish, avval birinchi, so'ng ikkinchi ovozlarni birlashtirib kuylatish lozim. SHunda ham asar ohangini va xorni sinchikovlik bilan kuzatish lozim. Dirijyorning qo'l harakatlariga jiddiy rioya qilgan holda sof tovush va sof diktsiya bilan kuylashga erishish zarur. Asardagi so'zlarni unli va unsizlarini to'g'ri kuylatishga erishmoq zarur.

Tekshirish uchun savollar:

1. Vokal mashqlarining xor asarlarini o'rgatishdagi ahamiyati qanday?
2. Qanday vokal mashqlarini bilasiz?
3. Asarlarni o'rgatishda vokal mashqlaridan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi?

Tayan iboralar:

1. Nafas
2. Ataka

3. Diktsiya
4. Artikulyatsiya

10-Ma`ruza (2 soat)

Mavzu: Xorning sozi

Reja:

1. Soz xaqida tushuncha
2. Soz turlari
3. Xorga ton berish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gudkova P. G, Vasil'eva A.B «Ashula darsligi metodikasi» , 1973.
2. Ro`ziev SH «Xorshunoslik». T. 1987.
3. Qodirov R. G`. «Boshlagg`ich sinfda ko`p ovozli kuylash». T 1997.

Soz xaqida tushuncha

Soz- intervallarning tovush balandliklari munosabati sistemasi. Ko`p ovozli (garmonik) musiqaning rivojlanishi bilan sof kvinta va katta tertsiya soziga ehtiyoj sezila boshlangan.

Xorning sozi natural (tabiiy) bo`lganligi uchun unda «zona sozi» qo`llaniladi. Bunda tovush ma`lum zona kengligida o`z sifatini saqlaydi. Xorda zona so`zi tovushlarning lad asosida yuqorilatish va pasaytirish imkonini beradi.

Demak, soz tushunchasi, avvalo, tovush (ton) balandligi, keyin esa xordagi alohida ovozlar va partiyalarning o`zaro intanatsion munosabati bilan bog`liq. Oddiygina qilib aytganda, soz-interval va akkorlarning to`g`ri talaffuzidir.

Soz- soz har qanday musiqiy ijroda, shuningdek, xor qo`shiqchiligida hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Sozsiz musiqa asboblarini eshitib bo`lmaganidek, sozsiz xor va orkestrni ham tinglab bo`lmaydi.

Soz ham ansambl va nyuanslar kabi (tuslar) xorning asosiy elementlaridan bo`lib: u ijro sifatini belgilaydi. Zero, soz xorning eng asosiy elementlaridan biri bo`lib, xorning soz va lad qonuniyatlarining echilishiga, intonatsiya barqarorligiga imkoniyat yaratadi.

Soz turlari

Xor sozi natural (tabiiy soz) bo'lib, u ikki turga bo'linadi:

1. **Melodik** (gorizontal)- xor partiyalariga soz, ya'ni intervallarning aniq intonatsiya qilinishi.

2. **Garmonik** (vertikal)- umumiy xor sozi. Bu akkordalarning aniq intonatsiya qilinishi.

Xor ijrosida aniq sozga erishish uchun xonandalar va rahbar oldiga katta vazifalar qo'yiladi, avvalo rahbar yuqori malakali mutahasis bo'lishi va professionallik asosida ish tuta bilishi kerak. Xor sozining tiniq va yaxshi bo'lishi xonandalarning musiqa tayyorgarligiga, ovoz apparatining xolatiga, xorning qanday joylashganligiga, xona yoki sahnalarning okkustikasiga bog'liq bo'ladi.

qo'shiqchilikda vokal- eshitish qobiliyati (intonatsiyalar)ni nazorat qilishlari va ovozning umumiy xorga nisbatan qanday eshitilayotganligini kuzatib borishi, ladni sezishi zarur. Vokal, sol'fedjio mashg'ulotlari orqali xor a'zolarining vokal va garmonik qobiliyatlari rivojlanadi. Ko'p ovozli xor asarlarini aytish (a kapella) orqali xonandalarning garmonik eshitish qobiliyatini o'stiriladi. Xorning yaxshi sozga ega bo'lishiga major va minor gammalarini to'g'ri talaffuz qilish qoidalarini o'zlashtirishga bog'liq.

Xorning sozi intonatsiyaga bog'liq. Intonatsiya va soz bir-biriga uzviy bog'liq. Xorda tozza intonatsiyasiz soz bo'lmaydi. Intonatsiya- (lotincha «intona»- qattiq talafuz qilaman)-tovush balandligini ovozda qattiq talaffuz qilish. Tovushni og'iz bilan aniq talaffuz qilish uchun nafasni aniq olish, eshitish qobiliyatini to'g'ri uyg'unlash (koordinata qilish) muhim rol o'ynaydi.

Garmonik uch tovushlikni o'stirish uchun turli xil akkordlar, uchtovushliklar keng va tor joylashgan xolda olinadi. Diezlik tovushlar yuqorilatib, bemollik tovushlar esa bir muncha pasaytirib talaffuz qilinadi va keyingi notaga o'tiladi. Ma'lumki, xor soziga asarning dinamikasi ta'sir qiladi, chunki xonandalar qattiq ovoz bilan kuylaganlarida ma'lum darajada ularni eshitish qobiliyati pasayadi, natijada sohtalik paydo bo'ladi.

Major intonatsiyasi minorga qaraganda engilroq ijro etiladi. Tabiiy minorda toza intonatsiyada ijro etish ancha mushkul, uning VII bosqichi pasayishiga va keyinti tonikasi yuqori intonatsiyaga moyildir. Xor soʻzi asarning ritm strukturasi, tempi va dinamikasi bilan bogʻliq boʻladi. Asar tempda boʻlsa, barcha xonandalar ham tovushlarning aniq balandligiga etmasdan kuylaydilar. Bunda asarni sekin tempda oʻrgatish, intervallarni aniq sadosiga erishish imkonini beradi. Soʻng asarni tez tempda davom ettirish mumkin. Aksincha oʻrganish davrida ogʻir asarlarni sal tezroq tempda ijro etilsa, asar tezroq oʻzlashtiriladi va xor sozi toza boʻladi. Xor partiyalarining birortasida soz noaniq boʻlsa, umumiy xorda hech vaqt toza soz boʻlmaydi. Xorning tondan chiqib ketishiga **detonatsiya** yoki **distonatsiya** deyiladi. Xor soziga bu salbiy taʼsir qiladi. Hamohanglik yoʻqoladi. Asosan bu xol xonandalarning ladni yaxshi sezmasligi, yuqori pozitsiyada tayanch bilan kuylamasligi, ovoz va eshitish qobiliyatining koordinatsiyasi yoʻqligi, toliqish, hayajonlanish, notoʻgʻri nafas olish, ovoz pardalarining oʻta taranglashuvi va ovoz dagʻal, zoʻriqib chiqishi natijasida boʻladi.

Bunda dirijyor darhol xorni toʻxtatmogʻi va toʻgʻrilamogʻi lozim.

Xorga ton berish

Asarni oʻz tonligida ijro qilish uchun xordan joʻrsiz uslubda mahoratli kuylay olish malakasi talab qilinadi. YUqori pozitsiyada kuylash interval va akkordlarni toʻgʻri talaffuz qilish kabi mashaqqatli mehnat evziga a kapella uslubida kuylashga erishiladi. Joʻrsiz asarlarni kuylashdan oldin xorga ton beriladi. Xor ijro qiladigan asarlar lad tonligiga sozlanadi. Ton berish xorni maʼlum lad- tonligiga moslashtirish, har bir ovoz partiyasiga tonlikdagi tegishli tovushni eshitirishdir.

Ton kamerton va royal orqali berilib, har bir ijrochi kerak boʻlgan tovushni anglab oladi. Natijada, ijro oʻsha lad tonligida aniq boshlanadi. Xor dirijyori tonni shoshilmasdan aniq va ishonch bilan berishi katta ahamiyatga ega. Ton aniq berilmasa xor ijrosi barqaror tovushga ega boʻlmaydi.

Ton berish katta ma'suliyat talab qilib, ziyraklik va nazariy bilim talab qiladi. Buning uchun ton berish yo'llari puxta egallangan bo'lishi kerak. Ba'zi jo'rli asarlarni boshlashdan oldin ham ton beriladi (muqaddimasiz asar bo'lganda). Xorga ton berish oldindan bo'lgani avzalroq.

Ton berish uchun «lya» yoki «do» kamertonidan ijro qilinishi kerak bo'lgan a kapella xorning tonikasi, dominantasi yoki tertsiya tovushi topiladi va to'liq tonik uchtovushlik tuziladi. Xor partiyalariga kerakli tovushlar beriladi. Xor aynan shu tonlikda sozlanadi.

Masalan: lya tovushidan do major uch tovushligi uchun kich 3 yuqoriga do gacha chiqiladi.

71

Minor tonligida ton berish uchun minor tonik uchtovushligini ovoz bilan aytish (yoki asbobda chalish) mumkin:

Agar asar garmonik minor ladida bo'lsa, xorni quyidagicha sozlash mumkin:

Asar tonikadan boshlanmay, dominanta yoki boshqa bosqich tovushlaridan boshlangan vaqtda ham dirijyor, albatta xorga tonik uchtovushlikni, keyin esa dominanta uchtovushligini to'liq eshittirish kerak. Xorga doim tonik uchtovushligini eshittirish zarur.

Dur

Moll

«SHamol»

S. Abramova musiqasi

SHoshilmasdan

Solist bilan boshlanadigan asarga ham ladni to'liq tonik uchtovushligi beriladi. Bu solist va xorga eshittiriladi. Xor-dirijyori kamerton yoki boshqa asbobda berilgan tondan major yoki minor tonliklarini topib, tonik uchtovushliklarini tuza olishi va xorga aniq ton berishi lozim.

Tekshirish uchun savollar:

1. Sozni xordagi ahamiyati qanday?
2. Qanday soz turlarini bilasiz?
3. Xorga tonni nimalar orqali beriladi? Jo'rli va jo'rsiz xorlarning barchasiga ton beriladimi?

Tayanch iboalar:

1. Soz
2. Nafas
3. Intonatsiya
4. Ton

11-Ma`ruza (soat)

Mavzu: Xor partiturasini va uni taxlil qilish

Reja:

1. Dirijyorning xor partiturasini o'rgatishdagi asosiy etaplar.

2. Nota va adabiy tekstni o'rgatish
3. Asarni taxlil qilish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gudkova P. G, Vasil'eva A.B «Ashula darsligi metodikasi» , 1973.
2. Ro'ziev SH «Xorshunoslik». T. 1987.
3. Qodirov R. G'. «Boshlagg'ich sinfda ko'p ovozli kuylash». T 1997.

Xor asarlarini o'rganishda asarlarni to'g'ri tanlash, ularni xorga o'rgatish, aniq ko'zlangan maqsadga erishish uchun dirijyordan quyidagi vazifalar talab qilinadi:

Asarni puxta o'rganish, asarni mualliflari xaqida ma'lumotga ega bo'lish, asarni f-no asbobida chalib o'rganish, asarning har bir ovoz partiyalarini mukammal bilish va sof kuylay olish, asarni taxlil qilish.

O'rganiladigan asar dirijyor tomonidan puxta o'rganilishi lozim. Xor rahbari har ovoz partiya, intervallarni aniq o'rganishi, nyuanslar bilan tanishmog'i va asarni murakkab qismlarini puxta ishlab chiqishi va asarni murakkab joylarini belgilab olib xorga o'rgatish uchun tayyorlamog'i lozim. Dirijyor xorga o'rgatadigan asarini avval mazmun mohiyatini yashxi o'zlashtirib xor ishtirokchilariga uni to'la tushuntirib berishi zarur. Asarni chalib ijro etib berishi, dinamikalari bilan tanishtirishi kerak. O'rgatiladigan asarni raxbar o'zi yaxshi bilmasa talab darajasida o'rgata olmaydi. Xor dirijyori asarlarni xorga o'rgatayotgan tovushlarni vertikal va gorizontal o'rgatishga tayyor bo'lishi, uni solfedjio usulida kuylatib, tovushlarni aniq va ravon kuylatishi, so'zlar talaffuzi ustida ishlashi lozim. Xor raxbari qaysi ovoz partiyasi susaysa shu tovushni kuylab, boshqarib ketishi zarur. Bu esa undan nazariy va amaliy puxta bilim va malaka talab etadi.

Nota va adabiy tekstni o'rgatish

Asarni o'rgatishda asar notalarini aniq solfedjio usulida kuylatish katta ahamiyatga ega. Bunda turli xil vokal mashlarida foydalaniladi. Musiqaviy tayyorgarlikka ega xor bilan ishlash ancha qulaylik tug'diradi. Sol'fedjion kuylash orqali asar sof va ravon kuylaniladi.

Xor asarini kuylashda asar ustida ishlash jarayoni uch bosqichdan iborat bo'ladi.

- dirijyor asarni mustaqil o'rganishi va xor bilan ishlashga tayyorgarlik ko'rish.

- asarni xorga o'rgatish

- asarni ijro ettirish

YUqorida aytib o'tkanimizdek asarni o'rganishning asosiy bir bo'lagi nota kuylash hisoblansa, qo'shiq matnini aniq talaffuz qilib ravon musiqa ohangida kuylashida talaffuz ham katta ahamiyatga ega. Asosiy tovushlar har bir bo'g'inga to'g'ri kelsa, ayrim ligalangan tovushlarni kuylashda tekst so'zlarini aniq talaffuz qilish talab qilinadi. Asarni o'rganishda dirijyor va xor jamoasining butun ijodiy faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Asarni har tomonlama taxlil qilish jarayoni ham asar ustida ishlash jarayoniga kiradi. Chunki ijro paytida ham (boshlang'ich davrlarda) asar ustida ish olib boriladi. O'rganiladigan asar darhol ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Repetitsiya va kontsertda asarning har bir ijrosi uni sayqallab boraveradi. Akkordlar sadosi, partiyalarning hamohangligi yaxshilana boraveradi. Ijrochilar esa tinglovchilarga asarning asl ma'nosini etkazib berish uchun ijro mahoratlarini orttira boradilar.

Asarni taxlil qilish (annotatsiya)

Asarni taxlil qilish dirijyordan chuqur bilim, mahorat talab qiladi. Asosan rahbar o'rganiladigan asarni to'la taxlil qilib, uni asar mazmuni tomonidan, musiqaviy tomonidan to'la o'rganib, o'rganiladigan asarni jamoa o'rtasida taxlil qilib berishi katta natijalarga olib keladi.

Bunda rahbar asarni mualliflari, asarni mazmun mohiyatini, asarning qaysi xor uchun yozilganligi (jo'rli yoki jo'rsiz) ni, kimlar tomonidan kuylanishi, asarni sur'at tezligi, tonalligi, o'lchovi asarning umumiy va ovoz diapazonlari, asarning murakkab qismlarini (intervallarni yuqori va pastligi) kuylashiga erishish asarning muhim omillaridan hisoblangan dinamik nyuanslar xaqida ham to'xtalib o'tadi. O'rganilayotgan har bir asarni har bir elementlarini esdan chiqarmagan xolda taxlil qilib berilsa, ijrochilikda asar xaqida olgan

taassurotlari tufayli ijrochilar yaxshi kuylaydilar. Bunda asarni o`rganishga katta zamin yaratiladi. Har bir asarni jo`rnavoz yordamida chalib eshittiriladi. Nyuanslar bilan ijro etilgan asarni tinglagan kuylovchilarda asar xaqida tushuncha yanada rivojlanadi. Asarni o`rgatish davrida har bir partiya dastlab kuylab ko`rsatiladi bu xor asarini ijrosida yaxshi samara beradi va asar ijrosini yaxshi ijro etilishiga olib keladi.

Dirijyor asar partiyalarini aniq, ravon kuylab ijro etib berishi asarni tez, sifatli o`rganilishiga yordam beradi. Xor tomonidan har bir ovozlarni ravon, hamjixatlikda kuylanishi, dinamikalariga va raxbar ishoralariga amal qilib aniq kuylashi asarni qanday natijaga erishganligini belgilab beradi. Xor raxbari asarni jamoaga o`rgatishadgi uni bilim va ko`nikmalari, ijro va tushuntirishlari uni ijrosi jarayonida o`z aksini topadi.

**O`ZBEKISON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

D. Xamdamova

XORSHUNOSLIK

Buyurtma ___ tiraj_____ bahosi kelishgan holda.

Terishga berildi «___» _____ __ yil

Namangan-2005